



POSTMODERN ADABIYOTDA IDENTITET INQIROZI VA BADIY REPREZENTATSIYA (O'TKIR HOSHIMOV VA VIKTOR PELEVIN ASARLARI MISOLIDA)

Toshev Dilshodbek Tolmasbek o'g'li

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Ilmiy bo'lim xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20027914>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

postmodernism, identity crisis, representation, V. Pelevin, O' Hoshimov.

ABSTRACT

This article examines the phenomenon of identity crisis in postmodern literature and its artistic representation. The study provides a comparative analysis of the works of Uzbek writer O'tkir Hoshimov and Russian postmodernist Viktor Pelevin. The findings reveal that in Hoshimov's works, identity is formed on the basis of socio-cultural values, whereas in Pelevin's writings, it appears as fragmented and deconstructed.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Postmodernism adabiyotda markaziy tushunchalardan biri sifatida identitet muammosini keskin shaklda ilgari surdi. Zamonamizning paradoksal xususiyati uning uzluksiz va tobora tezlashib borayotgan o'zgaruvchanligi va dinamikasidir. Bu jarayonda barqaror, doimiy va fundamental bo'lgan barcha narsa yo'qolib bormoqda. Nafaqat ijtimoiy muhitning, balki shaxsiyatning mohiyati ham yemirilmoqda. Ushbu ijtimoiy-madaniy beqarorlik sharoitida jamiyatning kreativ transformatsiyasi bilan bir qatorda, simulakrlar, soxtaliklar hamda identitet va ijodning falsifikatsiyasi keng miqyosda tarqalmoqda¹. Rus jamiyatida kreativ identitetga bo'lgan ehtiyoj Volkov² tomonidan alohida ta'kidlanadi. Unga ko'ra, ijtimoiy modernizatsiya jarayonida aynan kreativ identitet jamiyatning raqobatbardoshligini oshiradi, yangi g'oyalar va ma'nolarni yaratadi hamda jamiyatni ommaviy ijtimoiy subyekt sifatida shakllantiradi. Biroq postmodern sharoitda inson identiteti muammoli tus oladi. Bu muammo kundalik hayotimizning barcha sohalariga singib ketgan. Soxtalashtirish jarayoni hayotning barcha darajalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy ijtimoiy hayot go'yoki hayotning o'zi emas, balki uning imitatsiyasiga aylanadi. Klassik realizm va modernizm da shaxs nisbatan yaxlit subyekt sifatida tasvirlangan bo'lsa, postmodernizm da bu yaxlitlik parchalanadi. Nazariy jihatdan bu jarayon Jean Baudrillard³ning simulakr nazariyasi va diskursiv subyekt haqidagi qarashlari bilan bog'liq. Shu nuqtai

¹ Maslova, E., Polomoshnov, L., Gabibov, A., Polomoshnov, P., & Polomoshnov, A. (2019). *Postmodern identity: Creativity or falsification*. In SCTCMG 2019: Social and cultural transformations in the context of modern globalism. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*. 2139-b. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2019.12.04.287>

² Volkov, I. G. (2014). Creativity in the context of the formation of Russian identity. *Humanitarian South of Russia*, 3, 25–40.

³ Foucault, M. (1972). *The archaeology of knowledge*. Pantheon Books.

nazardan, identitet endi barqaror mohiyat emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilinadi.

Nazariyasi. McComiskey⁴ (2000) modern va postmodern identitet tushunchalari o'rtasida farqni ko'rsatadi. Uning fikricha, modernizmga identitet haqiqatga obyektiv munosabat orqali aniqlanadi va "boshqa"ga qarshi qo'yish orqali shakllanadi. Modern subyekt mustaqil va suveren sifatida qaraladi hamda identitet farqlar tizimi orqali quriladi. Ammo Frissen⁵ nazariyasiga asoslanganda, identifikatsiyaning o'yin sifatida talqin qilinishi "o'yin identiteti" tushunchasini yuzaga keltiriladi. Bu tushuncha dastlab muammosiz va ixtiyoriy ko'rinishi mumkin, ammo aslida u bir qator ziddiyatlarni o'z ichiga oladi: ya'ni haqiqat va tashqi ko'rinish o'rtasidagi qarama-qarshilik, erkinlik va tashqi sharoitlarning ta'siri, individuallik va kollektivlik o'rtasidagi ziddiyatlar degan xulosaga kelinadi. Shu bilan birgalikda, G'arb tadqiqotchilari identitetga konstruktivistik yondashuv asosida qarab, shaxsiy identitetning ixtiyoriy qurilishini destruktiv emas, balki konstruktiv jarayon sifatida baholaydilar. Bu holat postmodern jamiyatning ijtimoiy-madaniy normasi sifatida talqin qilinadi. Natijada, identifikatsiya tobora tanlov masalasiga aylanadi va insonlar o'zlarini turli identitetlar doirasida qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar deya ifodalaydi Oostindie⁶.

Postmodernizmga identitet inqirozi quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi: subyektning fragmentatsiyasi, haqiqat va simulakr o'rtasidagi chegaraning yo'qolishi, ijtimoiy rollarning ko'payishi hamda individual "men"ning barqaror emasligini aniqlandi. Jean-François Lyotard⁷ ta'kidlaganidek, "katta narrativlar"ning inqirozi shaxsning o'zini anglashiga ham ta'sir qiladi. Endilikda inson o'zini yagona identitet orqali emas, balki ko'plab diskurslar orqali idrok etadi.

Natija va muhokama. Viktor Pelevin zamonaviy rus adabiyotining eng muhim vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi postmodernizm va ekzistensializm kesishgan nuqtada shakllangan murakkab badiiy tizimni namoyon etadi. Pelevin asarlarini ekzistensial falsafa prizmasida tahlil qilish, avvalo, inson mavjudligi, hayotning ma'nosi va subyektning o'zini anglash muammolarini chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi. Yozuvchi o'z asarlarida absurdlik, paradoks va simulyativ reallik elementlari orqali zamonaviy insonning ontologik beqarorligini ifodalaydi. A.Osipova⁸ nazariyasiga asoslanganda, Pelevin asarlarida u tez-tez mavjudlik falsafasiga murojaat qiladi, ya'ni reallikning tabiati, insonning jamiyatdagi o'rnini va uning roli haqida mulohaza yuritadi. Ekzistensial motivlar uning dastlabki asarlaridayoq kuzatiladi, masalan, "Chapaev and Void" romanida bosh qahramon illyuziyalar va saroblar bilan to'la dunyoda o'z yo'lini izlaydi. Shuningdek, "The Blue Lantern" asari ham reallikni idrok etish falsafasini yoritishini ifodalaydi. Shuningdek, yozuvchi ijodida Jean-Paul Sartre⁹ va Albert Camus¹⁰ga xos ekzistensial g'oyalar – erkinlik, tanlov, absurd va begonalashuv motivlari ham muhim o'rin

⁴ McComiskey, B. (2000). Composing postmodern subjectivities in the aporia between identity and difference. In *Teaching composition as a social process* (pp. 69–84). University Press of Colorado.

⁵ Frissen, V., Lammes, S., De Lange, M., De Mul, J., & Raessens, J. (2015). Homo ludens 2.0: Play, media, and identity. In *Playful identities: The ludification of digital media cultures*. Amsterdam University Press. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt14brqd4.3>

⁶ Oostindie, G. (2011). The individualization of remembering. In *Postcolonial Netherlands: Sixty-five years of forgetting, commemoration, silencing* (pp. 101–129). Amsterdam University Press. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt46mvd0.7>

⁷ Lyotard, J.-F. (1984). *The postmodern condition: A report on knowledge*. University of Minnesota Press.

⁸ Osipova, A. (2025). Victor Pelevin is an existentialist writer. *International Journal of Literature and Languages*, 5(1), 35–39. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue02-10>

⁹ Sartre, J.-P. (1990). *Existentialism is a humanism* (A. A. Sanin, Trans.). Politizdat.

¹⁰ Camus, A. (1990). *The rebel: Philosophy, politics, art*. Politizdat.


tutadi. Biroq Pelevin ushbu klassik ekzistensial muammolarni postmodern kontekstda qayta talqin qiladi: ya'ni insonning erkin tanlovi ham ko'pincha simulyatsiya yoki tashqi tizimlar tomonidan boshqariladigan illuziya sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, yozuvchi zamonaviy jamiyatda identitetni shakllantiruvchi omillar – media, reklama, texnologiya va mafkuraviy diskurslarni tanqidiy yoritadi.

Viktor Pelevin ning so'nggi romanlarida ekzistensial motivlarning kuchayishi zamonaviy insonning ontologik holatini ifodalashning muhim badiiy vositasiga aylanadi. Yozuvchi borliq, ong va shaxsiy erkinlik masalalarini an'anaviy ekzistensializm doirasida emas, balki postmodern kontekstda qayta talqin qiladi. A.Osipova tadqiqotida bayon qilinishicha¹¹, inson mavjudligi barqaror va yaxlit mohiyat sifatida emas, balki diskursiv va simulyativ tizimlar ichida shakllanadigan o'zgaruvchan konstruksiya sifatida tasvirlanadi. "iPhuck 10" romanida bu jarayon ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarning bosh qahramoni – sun'iy intellekt bo'lishi tasodifiy emas: bu orqali muallif inson ongining o'zi ham algoritmik va konstruktiv tabiatga ega ekanini ko'rsatadi. Qahramonning voqelikni idrok etishi, qaror qabul qilishi va o'z "men"ini anglashga urinishi aslida insoniy identitetning ham tashqi tizimlar – texnologiya, madaniyat va ideologiya – tomonidan shakllanishini ifodalaydi. Bu yerda identitet muammosi klassik ekzistensial savol – "men kimman?" – dan ko'ra murakkabroq tus oladi: u endi "men qanchalik realman?" degan savol bilan almashadi. Shu ma'noda, roman reallik va simulyatsiya o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishini badiiy shaklda aks ettiradi. "Secret Views of Mount Fuji" asarida esa ekzistensial izlanishlar sharqona falsafa, xususan buddaviylik bilan uyg'unlashadi. Fedya obrazining ichki transformatsiyasi zamonaviy insonning materialistik qadriyatlardan ma'naviy izlanishlarga o'tishini ifodalaydi. Biroq bu jarayon ham to'liq autentik emas: "baxt texnologiyalari" orqali ruhiy tajribalarni "sun'iy ishlab chiqarish" g'oyasi Pelevinga xos ironiyani yuzaga keltiradi. Natijada, muallif ruhiy ozodlikning o'zi ham iste'mol jamiyatida tovarlashib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa ekzistensializmning asosiy g'oyasi – insonning erkin va autentik tanlovi – postmodern sharoitda shubha ostiga olinayotganini anglatadi. Bundan tashqari, Pelevinning "Invincible Sun" romanida esa identitet inqirozi yanada murakkab shaklga ega bo'ladi. Asar qahramoni yashayotgan reallikning o'zi shubhali bo'lib, u o'z mavjudligining ontologik asoslarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Bu holat Jean Baudrillard¹² ta'riflagan "giperreallik" tushunchasiga yaqinlashadi, ya'ni real va sun'iy o'rtasidagi farq butunlay yo'qoladi. Qahramonning tajribasi shuni ko'rsatadiki, identitet endi ichki mohiyat emas, balki tashqi strukturalar tomonidan ishlab chiqiladigan va boshqariladigan modelga aylanadi.

¹¹ Osipova, A. (2025). Victor Pelevin is an existentialist writer. *International Journal of Literature and Languages*, 5(1), 35–39. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue02-10>

¹² Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and simulation*. University of Michigan Press.

V. Pelevin asarlarida identitlik ifodalanishi



Bosh qahramon g'ayrioddiy va sirli reallikda yashaydi, bu yerda uning mavjudligi doimiy ravishda shubha ostiga olinadi. U yashayotgan dunyo o'yin, simulyatsiya yoki illyuziya bo'lishi mumkin. Viktor Pelevin asarlarida identitetning dekonstruksiyasi – Viktor Pelevin ijodi postmodern identitet inqirozining yorqin namunasi hisoblanadi. Uning “Generation P”¹³ va “Chapaev and Void”¹⁴ asarlarida quyidagi jihatlar kuzatiladi:

1. Fragmentatsiya: qahramonlar ko'pincha o'z “men”ini yo'qotadi. Ular reklama, media va ideologiya ta'sirida shakllangan sun'iy identitetlarga ega.

2. Simulakrlar dunyosi: Baudrillard nazariyasiga muvofiq, Pelevin asarlarida haqiqat o'rnini belgilar egallaydi. Qahramonlar real va virtual olam o'rtasida adashadi.

3. Ironiya va parodiya: Pelevin identitet inqirozini jiddiy dramatik emas, balki ironik va satirik shaklda ifodalaydi. Natijada, uning qahramonlari “markazsiz subyekt” sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, Pelevin ijodida ekzistensial motivlar an'anaviy falsafiy savollarni saqlab qolgan holda, ularni yangi – postmodern – muhitda qayta talqin qiladi. Insonning erkinligi, tanlovi va o'zini anglash jarayoni endi absolyut qiymatlar bilan emas, balki simulyatsiya, texnologiya va diskurslar bilan belgilanadi. Natijada, yozuvchi zamonaviy jamiyatda identitetning nafaqat inqirozga uchrayotganini, balki uning o'zi konstruktiv va nisbiy hodisaga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

O'tkir Hoshimov asarlarida identitet va an'ana – O'tkir Hoshimov ijodi ko'proq realizmga yaqin bo'lsa-da, unda ham identitet muammosi muhim o'rin tutadi. F.Hamroyeva¹⁵ning tadqiqotiga ko'ra, “Dunyoning ishlari” asari turli hajmdagi novellalardan tashkil topgan bo'lib, ular muallif hayotiy kuzatuvlari va shaxsiy tajribalariga tayanadi. Muallif muqaddimada asarda

¹³ Pelevin, V. (1999). *Generation P*. Vagrius.

¹⁴ Pelevin, V. (1996). *Chapaev and Void*. Vagrius.


¹⁵ Hamroyeva, F. F. (2023). O'tkir Hoshimovning kichik hikoyalaridagi “nutqiy niqob”ning ifodalanishi. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(10), October.

tasvirlangan obrazlar va voqealar real hayotdan olinganini alohida ta'kidlaydi. Asarda jonli va tabiiy tasvirlar, milliy ruh bilan sug'orilgan yondashuv hamda qahramonlar o'rtasidagi samimiy dialoglar o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Mazkur asar asosan yozuvchining bolalik xotiralari va o'sha davr voqealari asosida badiiy shakllantirilgan. Bundan tashqari, yosh tadqiqotchi Aziza Ziyayeva¹⁶ "Dunyoning ishlari" asarida ona obrazi tahliliga bag'ishlangan ishida har bir hikoyaning yakunida muayyan xulosaviy mazmun mujassam ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hikoyalar oxirida so'zlovchi qahramon o'z xatti-harakatlari sabab onasiga yetkazgan iztiroblarni anglab, pushaymonlik hissini boshdan kechiradi. Shu jihatdan, har bir hikoya tarbiyaviy va axloqiy mazmun bilan boyitilgan. Xususan, "Xiyonat" nomli novellada ona obrazi farzandni halollik, insonparvarlik va yomonlikdan tiyilish kabi qadriyatlarga yo'naltiruvchi ma'naviy timsol sifatida talqin qilinadi. Umuman olganda, inson hayoti davomida turli ijtimoiy munosabatlar doirasida xiyonat holatlari bilan yuzlashishi mumkinligi ta'kidlanadi. Biroq asarda ona farzand uchun mutlaq ishonch va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanib, undan xiyonat kutib bo'lmasligi g'oyasi ilgari suriladi. Muallif novellaning yakunida berilgan ritorik savol orqali o'quvchini chuqur mushohada yuritishga undaydi.

O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek realizm an'alariga tayangan holda, shaxs va jamiyat munosabatlari, milliy qadriyatlar hamda ma'naviy identitet masalalarini chuqur badiiy talqin etadi. Uning asarlarida identitet postmodern adabiyotdagi kabi parchalanib ketgan emas, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy omillar asosida shakllanuvchi barqaror hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Hoshimov ijodi zamonaviy o'zbek jamiyatida an'ana va modernlik o'rtasidagi muvozanatni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adibning "Dunyoning ishlari" asari shaxs identitetining shakllanishida oilaviy muhit, ayniqsa ona obrazining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Asarda qahramonlarning o'z "men"ini anglash jarayoni ularning bolalik xotiralari, ijtimoiy tajribasi va axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Ona timsoli esa ma'naviy tayanch sifatida namoyon bo'lib, shaxsning axloqiy identitetini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida talqin qilinadi. Bu holat identitetning individual emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruktsiya ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, O'.Hoshimov asarlarida an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyat ham muhim mavzulardan biridir. Xususan, uning qahramonlari ko'pincha zamonaviy hayotning murakkabliklari bilan to'qnash kelar ekan, o'z qarorlarini milliy qadriyatlar asosida qabul qilishga intiladi. Bu jarayon shaxsning ichki konfliktlarini yuzaga chiqaradi, biroq bu konflikt destruktiv emas, balki identitetni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Shu ma'noda, Hoshimov qahramonlari o'z "men"ini yo'qotmaydi, aksincha, uni qayta anglaydi va mustahkamlaydi. Shu xususida, Adibning "Ikki eshik orasi" romanida esa ijtimoiy identitet masalasi yanada kengroq tarixiy va ijtimoiy kontekstda ochib beriladi. Asarda turli avlod vakillarining hayotiy tajribasi orqali shaxsning jamiyat bilan uzviy aloqasi ko'rsatiladi. Urush, ijtimoiy o'zgarishlar va tarixiy sinovlar fonida insonning ma'naviy qadriyatlari sinaladi va aynan shu jarayonda uning identiteti shakllanadi. Bu yerda identitet statik emas, balki tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib boruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi.

¹⁶ Aziza Ziyayeva, G. S. "Dunyoning ishlari" qissasida ona timsoli. *Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya*, t. 2, soni 14, Zendo, aprel 2023, ss. 42–45. doi:10.5281/zenodo.7858503

O'.Hoshimov asarlarida identitlik ifodalanishi



Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov asarlarida identitet inqirozi emas, balki identitetning ijtimoiy va axloqiy asosda shakllanishi va mustahkamlanishi jarayoni tasvirlanadi. Adib ijodi milliy an'analar va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, shaxsning o'zligini anglashiga xizmat qiluvchi badiiy makon yaratadi. Shu jihatdan Hoshimov ijodi postmodern adabiyotdagi fragmentatsiyalangan identitet modeliga muqobil ravishda yaxlit va ma'naviy asoslangan identitet konsepsiyasini ilgari suradi.

1. Ijtimoiy identitet: Hoshimov qahramonlari jamiyat, oila va milliy qadriyatlar bilan bog'langan holda tasvirlanadi.

2. An'anaviy va zamonaviy qarama-qarshiligi: asarlarda globalizatsiya va modernizatsiya natijasida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlar aks etadi.

3. Axloqiy asos: Pelevindan farqli ravishda, Hoshimovda identitet to'liq parchalanmaydi. U axloqiy va madaniy asos orqali tiklanadi.

No	Mezon:	V.Pelevin asarlari	O'.Hoshimov asarlari
1.	Identitet tabiati	Fragmentatsiyalanga	Barqaror (nisbatan)
2.	Reprezentatsiya	Ironik, dekonstruktiv	Realistik
3.	Falsafiy asos	Postmodernizm	Ijtimoiy realizm
4.	Qahramon tipi	"yo'qolgan subyekt"	"izlovchi subyekt"

V.Pelevin va O'.Hoshimov ijodi ikki xil madaniy makonni ifodalaydi. Post-sovet Rossiyasida yuzaga kelgan ideologik vakuum identitetning to'liq parchalanishiga olib kelgan bo'lsa, o'zbek jamiyatida an'anaviy qadriyatlar hali ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, V.Pelevinda identitet → dekonstruksiya, O'.Hoshimovda identitet → transformatsiya aniqlandi.

Bu farq ularning badiiy reprezentatsiya usullarida ham aks etadi. Postmodern adabiyotda identitet inqirozi markaziy muammolardan biridir. Viktor Pelevin ijodida bu inqiroz radikal va fragmentatsiyalangan shaklda namoyon bo'lsa, O'tkir Hoshimov asarlarida u ijtimoiy va axloqiy kontekstda qayta talqin qilinadi. Natijada, identitet postmodern davrda, barqaror mohiyat emas, balki doimiy o'zgaruvchan konstruktsiya sifatida namoyon bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and simulation*. University of Michigan Press.
2. Bauman, Z. (2000). *Liquid modernity*. Polity Press.
3. Camus, A. (1990). *The rebel: Philosophy, politics, art*. Politizdat.
4. Foucault, M. (1972). *The archaeology of knowledge*. Pantheon Books.
5. Frissen, V., Lammes, S., De Lange, M., De Mul, J., & Raessens, J. (2015). *Homo ludens 2.0: Play, media, and identity*. In *Playful identities: The ludification of digital media cultures*. Amsterdam University Press. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt14brqd4.3>
6. Hall, S. (1996). *Who needs identity?* In S. Hall & P. du Gay (Eds.), *Questions of cultural identity* (pp. 1–17). Sage.
7. Hamroyeva, F. F. (2023). O'tkir Hoshimovning kichik hikoyalaridagi "nutqiy niqob"ning ifodalanishi. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(10).
8. Hoshimov, O'. (1982). *Dunyoning ishlari*. G'afur G'ulom Publishing.
9. Hoshimov, O'. (1994). *Ikki eshik orasi*. Sharq.
10. Jameson, F. (1991). *Postmodernism, or, the cultural logic of late capitalism*. Duke University Press.
11. Lyotard, J.-F. (1984). *The postmodern condition: A report on knowledge*. University of Minnesota Press.
12. Maslova, E., Polomoshnov, L., Gabibov, A., Polomoshnov, P., & Polomoshnov, A. (2019). *Postmodern identity: Creativity or falsification*. In *Social and cultural transformations in the context of modern globalism (SCTCMG 2019)*. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2019.12.04.287>
13. McComiskey, B. (2000). *Composing postmodern subjectivities in the aporia between identity and difference*. In *Teaching composition as a social process* (pp. 69–84). University Press of Colorado.
14. Oostindie, G. (2011). *The individualization of remembering*. In *Postcolonial Netherlands: Sixty-five years of forgetting, commemoration, silencing* (pp. 101–129). Amsterdam University Press. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt46mvd0.7>
15. Osipova, A. (2025). *Victor Pelevin is an existentialist writer*. *International Journal of Literature and Languages*, 5(1), 35–39. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue02-10>
16. Pelevin, V. (1996). *Chapaev and void*. Vagrius.
17. Pelevin, V. (1999). *Generation P*. Vagrius.
18. Sartre, J.-P. (1990). *Existentialism is a humanism* (A. A. Sanin, Trans.). Politizdat.
19. Volkov, I. G. (2014). *Creativity in the context of the formation of Russian identity*. *Humanitarian South of Russia*, 3, 25–40.
20. Ziyayeva, A. G. S. (2023). "Dunyoning ishlari" qissasida ona timsoli. *Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya*, 2(14), 42–45. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7858503z>